**«Sof 40» tarif rejasi abonementi shartlari.**

**1. Chegirmali «Sof 40» tarif rejasi abonementlari faqat butun Respublika bo‘ylab kompaniya o‘z ofislarida va rasmiy dilerlarida yangi ulanishlar uchun amal qiladi.**
**2. Abonementlarning taqdim etilish shartlari:**

| | Tarif rejasi | Abonement muddati | Abonent to‘lovi (oyda bir marta) | Chegirma |
|---|---|---|---|---|
| **1** | Sof 40 | 3 oy | **105 000 UZS** | **15 000 UZS** |
| **2** | Sof 40 | 6 oy | **200 000 UZS** | **40 000 UZS** |
| **3** | Sof 40 | 12 oy | **350 000 UZS** | **130 000 UZS** |

| **Abonementlar bo‘yicha oylik limitlar** | |
|---|---|
| Oylik internet-trafik limiti | 10 GB |
| O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi daqiqalarning oylik limiti | Cheksiz* |
| O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti | 1500 |
| Limitlarni tekshirish | *100# – daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari |

**Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.*

| **Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash** | |
|---|---|
| | |
| Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari) | 25 so‘m |
| 1 MB internet narxi | 25 so‘m |
| O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari) | 25 so‘m |
| Xalqaro SMSlar | 1 000 so‘m |

**Abonementlarga USSD (*120#), SBMS moduli va Shaxsiy kabinet orqali o‘tib bo‘lmaydi**.

**«Sof 40» tarif rejasiga abonement ulatgan abonentlar boshqa ochiq tarif rejalariga o‘ta oladilar.**

**Boshqa mavjud tarif rejalariga o‘tishda “Sof 40” tarifi abonementlari saqlanib qolmaydi.**

Eslatma: Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to‘plamdan sarflanadi.

• «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmati abonementlarga yangi ulanishda avtomatik ravishda bepul asosda taqdim etiladi;

• Xizmatni boshqarish *977# USSD-soʻrovi yordamida amalga oshiriladi;

• «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmatining faol pullik (oylik va kunlik) opsiyalari, «Barcha uchun ovozli pochta» xizmati oʻchiriladi va bepul asosda «Sizga qoʻngʻiroq qilishdi» xizmati belgilanadi.

3. Abonent toʻlovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:
- Abonementning ulanish sanasi tegishlicha 3, 6 yoki 12 oylik davrda abonent toʻlovining yechilish sanasi hisoblanadi;
- «Sof 40» tarif rejasi abonementi ulanganida, 3/6/12 oylik abonent toʻlovi hamda limitlar, hisobda yetarlicha mablagʻ boʻlsa, toʻligʻicha (davrning oxirigacha qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi/belgilanadi;
- Agar hisob manfiy holatda boʻlsa yoki abonement boʻyicha abonent toʻlovi yechilishi uchun mablagʻ yetarli boʻlmasa, toʻlov yechilmaydi, kiritilgan trafik limiti belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kiritilmaydi;
- Abonent toʻlovi abonement boʻyicha abonent toʻlovi samarali yechilgan kundan 3, 6, 12 oyda bir martalik oraliqda yechiladi. Abonent toʻlovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi boʻyicha abonent toʻlovining soʻnggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi;
- Abonementlar doirasida navbatdagi abonent toʻlovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha boʻlgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Abonent toʻlovining toʻliq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarlicha mablagʻ boʻlishi kerak;
- Agar abonent toʻlovini yechish paytida abonent hisobida toʻlovni yechish uchun yetarli mablagʻ boʻlmasa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent toʻlovining toʻliq hajmda yechilishi uchun yetarli mablagʻ boʻlmagunicha abonent toʻlovi yechilmaydi;
- Balans abonent toʻlovini toʻliq yechish uchun yetarli miqdorga toʻldirilganida abonent toʻlovi darhol yechib olinadi. Abonent toʻlovi yechib olinganidan soʻng abonent raqami Faol holatga oʻtadi va abonement shartlari boʻyicha limitlar belgilanadi. Shundan keyin abonent toʻlovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq, ya'ni abonement boʻyicha abonent toʻlovi soʻnggi marta samarali yechilgan kundan boshlab 3, 6 yoki 12 oyda bir martalik oraliqda yechiladi;

4. Tarif opsiyalari doirasidagi oylik limitlar faqat joriy davr uchun abonent toʻlovi samarali yechilganidan keyin belgilanadi;

- Tarif rejasi shartlariga koʻra oylik limitlar belgilanish sanasidan 1 oy muddatga taqdim etiladi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari navbatdagi bitta davrga koʻchirib oʻtkaziladi;

- Oldingi davrdan koʻchirib oʻtkazilgan oylik limitlarning qoldiqlari toki yangi davrning oxiriga qadar amal qiladi;

- Agar tanlangan abonement boʻyicha abonent toʻlovi oʻz vaqtida yechilmasa, u holda oldingi hisob-kitob davrida ishlatilmagan limitlar qoldiqlari bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni abonent toʻlovining toʻliq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga toʻldirishni hamda tarif rejasi boʻyicha limitlarning belgilanganligini *100# USSD-soʻrovi yordamida tekshirishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi bo‘yicha oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo‘ng‘iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko‘ra limitdan tashqari barcha yo‘nalishlar bo‘yicha narxlarga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi va qo‘shimcha internet-to‘plamlar bo‘yicha oylik internet-trafik limiti sarflab tugatilgach, internetga kirish cheklanadi. Bunda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolani o‘z ichiga oluvchi SMS qabul qiladi. Internetdan foydalanishda davom etish uchun, abonent o‘zi internetdan foydalanishi uchun opsiyani tanlashi lozim bo‘ladi:

- Internet-to‘plam sotib olish;
- Limitdan tashqari 1 MB narxida mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent «Limitdan tashqari 1 MB narxida mobil internetni faollashtirish» opsiyasini tanlasa, keyin esa Oylik internet-to‘plam sotib olsa, u holda qo‘shimcha to‘plam bo‘yicha limitlar tugaganidan so‘ng, tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga ko‘ra limitdan tashqari 1MB narxida sarflanadi.

**«Limitdan tashqari 1 MB narxida mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so‘rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlay oladi.**

**Internetga kirish cheklanganida, abonent to‘lov tizimlarining ilovalaridan foydalanmoqchi bo‘lsa, ular offline rejimida to‘g‘ri ishlashi uchun smartfonda ma’lumotlar almashish rejimini o‘chirib qo‘yishi lozim.**

**E’tibor qiling:**
- «Sof» tariflar tizimi ichida biridan boshqasiga o‘tishlarda, agar abonent «Sof 50», «Sof 70», «Sof 100» va «Sof 150» tarif rejalariga o‘tsa, u holda tarif bo‘yicha oldin belgilangan limitlar qo‘shiladi va toki sarflab tugatilguniga yoki avvalgi tarifga ko‘ra ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

- «Sof» tariflar tizimi ichida biridan boshqasiga o‘tishlarda, agar abonent «Sof 30» yoki «Sof 18» tarifiga o‘tsa, u holda tarif opsiyasi bo‘yicha oldin belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Abonementdan «Start 10», «Ovoz 15» yoki «Internet 60» tariflariga o‘tishda, avvalgi tarif rejasiga ko‘ra oldin belgilangan limitlar bekor qilinadi.

5. Tarif rejasiga abonementning amal qilishi davrida «Restart» xizmatini faollashtirib bo‘lmaydi.

6. «Raqamni saqlab qolish» xizmatini faollashtirib bo‘lmaydi.

7. «Sof 40» tarif rejasi abonementini ulatgan abonentlar uchun «Sof tariflari uchun Istalgan raqam» hamda «Muddatli to‘lovga chiroyli raqam» xizmatlari bo‘yicha yangi ulanishlar amal qilmaydi.

8. «Sof» tizimi tarif rejalari abonentlari uchun «Qadrdonlar!» sodiqlik dasturi va «U+» sodiqlik dasturi amal qiladi.

«Sof 40» tarif opsiyasi abonentlari uchun «U+» sodiqlik dasturi shartlari:
- 3 oylik abonement uchun abonent to‘lovi to‘langanida: 6 000 promo birlik taqdim etiladi
- 6 oylik abonement uchun abonent to‘lovi to‘langanida: 12 000 promo birlik taqdim etiladi
- 12 oylik abonement uchun abonent to‘lovi to‘langanida: 24 000 promo birlik taqdim etiladi

9. Tarif rejalari shartlariga ko‘ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko‘ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo‘nalishlardagi qo‘ng‘iroqlarga sarflanmaydi.

10. Abonement doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

11. «Sof 40» tarif rejasi abonementini ulatgan abonentlar uchun «Sizga qo‘ng‘iroq qilishdi», «Qulay daqiqalar», «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to‘plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to‘plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to‘plami), «Tungi internet-to‘plamlar», «Tunda 4Gni sinab ko‘ring», «Internet-sovg‘a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.

12. «Sof 40» tarif rejasi abonementini ulatgan abonentlar uchun «Tarmoq ichida qulay» va «O‘zbekiston bo‘yicha qulay» to‘plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to‘plamlar, «Kunlik SMS-to‘plamlar», «Tungi internet», «Soatbay internet», Cheksiz internet-to‘plamlar, «Oylik 4G Internet-to‘plamlar» va «Maksimal internet» xizmati amal qilmaydi.

13. Tegishli tarif rejalari doirasida olingan cheksiz shartlar (qo‘ng‘iroqlar, internet) tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovi o‘z vaqtida to‘langanida, shuningdek tarif rejasini almashtirgandan keyin navbatdagi oyga ko‘chirib o‘tkazilmaydi.

14. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga mablag‘larni rezervatsiya qilish tizimi va 4G tarmog‘ining ishlash xususiyati haqida qo‘shimcha ma’lumot bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.